

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**«KELISHILDI»
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**



« » _____ 2020-y.



**«TASDIQLAYMAN»
TDPU rektori
A.Yu. Umarov**
« » _____ 2020-y.

5111800 - Maktabgacha ta'lim ta'lim yo'nalishi negizidagi:

5A111801 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)

**magistratura mutaxassisliklariga kiruvchilar uchun maxsus
(ixtisoslik) fanlaridan**

DASTUR

Toshkent – 2020-y.

Annotatsiya

Dastur 5A111801- Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim) magistratura mutaxassisligiga kiruvchilar uchun 5111800 – “Maktabgacha ta'lim” ta'lim yo'nalishining 2016/2017 o'quv yilida tasdiqlangan o'quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzilgan.

Tuzuvchilar:

G.E.Djanpeisova – Nizomiy nomidagi TDPU «Maktabgacha ta'lim metodikasi» kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent

N.N.Djamilova – Nizomiy nomidagi TDPU «Maktabgacha ta'lim metodikasi» kafedrası professor v.b., p.f.d.

D.R.Babaeva – Nizomiy nomidagi TDPU «Maktabgacha ta'lim metodikasi» kafedrası professor v.b., p.f.n.

Dastur Maktabgacha ta'lim fakultetining 2020 yil 30 iyundagi №10-sonli Kengashi yig'ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

5111800 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi – pedagogika sohasidagi yo'nalish bo'lib, u maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, hamda maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatuvchi pedagogining kasbiy-amaliy faoliyatga tayyorlash uchun zarur bo'lgan ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini belgilab beradi.

Ta'lim yo'nalishi negizidagi mutaxassislikning vazifasi talabalarda maktabgacha ta'lim pedagogika va metodikasini o'qitishning ilmiy-metodik muammolarini tadqiq qilishda zarur bo'ladigan ilmiy- nazariy asoslari, maktabgacha pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari, ta'rifi va tasnifi, bolalar rivojlanishida biologik va ijtimoiy omillar, maktabgacha yoshdagi bolaning psixik taraqqiyotining asosiy bosqichlari, ta'limning didaktik tamoyillari, maktabgacha ta'limni tashkil etish shakllari; usullari, vositalari; maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning maqsad va vazifalari, ta'lim berish va tarbiyalash muammolari, usullari; jismoniy, aqliy, ahloqiy, mehnat, estetik tarbiya berish, maktabgacha ta'limni boshqarish, rahbarlik qilish yo'llari, usullari, innovasion pedagogik va axborot-kommunikasion texnologiyalaridan foydalangan holda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

5111800 – Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi negizidagi 5A111801– Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Maktabgacha ta'lim) magistratura mutaxassisligiga kiruvchi talabalar uchun ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga asosan 6 ta ixtisoslik fanlari bo'yicha: “Maktabgacha peagogika”, “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi”, “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi”, “Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazaryasi va metodikasi”, “Tabiat bilan tanishtirish nazariyasi va metodikasi”, “Matematik tasavvurlarni shakllantirish nazariyasi va metodikasi” fanlaridan test savollari shakllantirilgan. Bu fanlar negizida qamrab olingan masalalar quyida batafsil keltirilgan.

MAKTABGACHA PEAGOGIKA fani bo'yicha:

Maktabgacha pedagogikaning predmeti va vazifalari; Maktabgacha pedagogikaning umumiy asoslari.Kadrlar tayyorlash milliy modeli.Maktabgacha ta'limga kirish. Maktabgacha ta'lim – uzluksiz ta'limning alohida turi sifatida. Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tarbiyasi. O'zbekistonda maktabgacha ta'limning vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari. Maktabgacha pedagogikaning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari.

Maktabgacha pedagogikada ilmiy-tadqiqot metodlari. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalari. Maktabgacha pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Jahon mamlakatlari ta'lim tizimida maktabgacha ta'limning tutgan o'rni.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Hozirgi jamiyatda murabbiy tarbiyachilarga qo'yilgan talab va vazifalari. Tarbiyachilik kasbi uning axloqiy sifatleri. Davlatimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasiga qo'yilgan talablar, vazifalar.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning yosh guruhlari. Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisining asosiy vazifalari va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar.Zamonaviy tarbiyachilar kasbiy kompetentligining uch aspekti. Zamonaviy

pedagogikada shaxs shakllanishiga doir yondoshuvlar. Bolalarda tashabbusni namoyon etish va o'zaro muloqot jarayoni; ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni va vositalari, uni tashkil etishning metod va usullari.

Bolani maktabga tayyorlashda maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab va oilaning xamkorligi. Sotsial tarbiya jarayonining mazmun-mohiyati. Tarbiya qonuniyatlari. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Kasbiy ijodiy tafakkuri, bilimlarini to'ldirish va yangilashga bo'lgan ehtiyojlarini rivojlantirish. Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi.

Bolalar rivojlanishida oila, maktab, maktabgacha ta'lim muassasasi va mahallaning o'rni. Tarbiyaning umumiy vazifalari. Talabalarning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish, pedagogik qobiliyat, bilishga bo'lgan intilishi va ehtiyojlarni rivojlantirish. Bolalar bog'chasida, oilada olib boriladigan ta'lim ishining metod va shakllari mazmuni uzviyligi. Tarbiya jarayonini tashkil etishga doir zamonaviy yondoshuvlar va ularning o'ziga xosliklari. Tarbiya turlarining umumiy tasnifi. Kasb turlari, kasbiy mahorat, tarbiyachi, uslubchi, mudira faoliyati va uni boshqaruvi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi ijodiy tashkil qilish va uni boshqarish turlari. Tarbiyachi mahorati. Uslubchi mahorati. Mudira mahorati. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktab ta'limiga moslashtirish metod, vosita va usullari. Maktabgacha ta'lim muassasasi xujjatlari. Tarbiyachining ish xujjatlari. Yillik, oylik istiqbol rejalar. Uslubchining ish xujjatlari.

NUTQ O'STIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI fani bo'yicha:

Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta'lim berishning mohiyati va muammolarini o'rganadigan fan. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta'lim berish yo'llarini o'rgatadi. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi fani yetti yoshgacha bo'lgan bolalarga har tomonlama nutqning nazariy va empirik muammolarini o'rgatadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalar hamda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama uyg'un rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan shart-sharoitlarni ishlab chiqadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari, unga qo'yilgan talablar, usullari, shakllari, nutqni rivojlantirish muammolari, barkamol avlod tarbiyasida nutqni to'g'ri shakllantirish yo'llari va ish samaradorligi. Zamonaviy pedagogik texnologiya. Ta'lim-tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, va uning tamoyillari, qonuniyatlari. Maktabgacha yoshda bo'lgan bolalarda.

JISMONIY TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI fani bo'yicha:

Maktabgacha ta'limda bolalar jismoniy tarbiyasining rivojlanish tizimi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalashning yosh, fiziologik, va ruhiy holatini o'rganish. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi fanining ilmiy-pedagogik asoslari. Maktabgacha yoshdagi bolalarga asosiy harakatlarni o'rgatish. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi. Maktabgacha ta'limda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida kundalik faoliyat davomida jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarni tashkil etishni. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasining asoslarini.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishining yosh xususiyatlarini. Jismoniy tarbiya vazifalari va vositalari, metodlarini. Jismoniy tarbiya bo'yicha mashg'ulotlar, harakatli o'yinlarni o'tkazish metodikasi. Maktabgacha ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya bo'yicha ishlarni tashkil etish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini to'g'ri rejalashtirish. Ertalabki badan tarbiya va harakatli o'yinlarga rahbarlik qilish. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi. Kundalik faoliyatda bolalarni jismoniy tarbiyasini tashkil etishni. Kun tartibida bolalarni chiniqtirishni.

TASVIRIY FAOLIYATGA O'RGATISH NAZARIYASI VA METODIKASI fani bo'yicha:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyati xaqida tushuncha; maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyati nazariyasi va metodlari; maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati turlari va o'ziga xosligi; rasm, loy, applikatsiya, qurish-yasash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy ijodkorligini rivojlantirish; maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish; maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish usullari; tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni maktabga tayyorlash; maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy qobiliyatni rivojlanganlik darajasi. Maktabgacha ta'limda tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasi o'quv fanini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar. tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish va o'tkazish metodikasi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatga o'rgatish metodikasining asoslari; maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyati xaqida tushuncha; maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy faoliyati nazariyasi va metodlari; maktabgacha yoshdagi bolalarning tasviriy faoliyati turlari va o'ziga xosligi; rasm, loy, applikatsiya, qurish-yasash orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy ijodkorligini rivojlantirish; maktabgacha yoshdagi bolalar tasviriy faoliyatining turlari, tasviriy faoliyatga o'rgatish metod va usullari.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish; maktabgacha yoshdagi bolalarni tasviriy san'at asarlari bilan tanishtirish usullari; maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish; mashg'ulotdan

tashqari vaqtlarda tasviriy faoliyatni tashkil qilish; maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy qobiliyatni rivojlanganlikni aniqlash; tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalarni maktabga tayyorlash; maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy qobiliyatni rivojlanganlik darajasini tashxislash usullari; maktabgacha ta'lim muassasalarida tasviriy faoliyat mashg'ulotlarini o'tkazish va taxlil qilish.

TABIAT BILAN TANISHTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI **fani bo'yicha:**

Maktabgacha ta'limda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning nazariy asoslari va tabiat xaqida tushuncha. Tabiat, inson, jamiyat tushunchalari. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining maqsad va vazifalari. Tabiat bilan tanishtirish metodikasining fan sifatida shakllanishi. Sharq va G'arb olimlarining tabiat, uning inson hayotidagi o'rni haqidagi qarashlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish vazifalari va metod, vositalari. Yer va quyosh planetalari haqida tushunchalarni shakllantirish. Tabiat materiallarni yig'ish va ularni badiiy ijodda aks ettirish. Metod haqida tushuncha. Tabiatga nisbatan insoniy munosabatlarni shakllantirishda bolalarning qurish - yasash, faoliyatlari. Tabiat haqida beriladigan bilimlarning bolalar yoshiga mosligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiat bilan tanishtirish ish shakllari va o'ziga xosligi. Turli yosh guruhi bolalarining tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishida o'ziga xosliklar. Tabiat bilan tanishtirish shakllari: mashg'ulot, ekskursiya, sayr turlari, ularni o'tkazish metodikasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'lkamiz tabiati, o'simlik va hayvonot olami bilan tanishtirishda tabiat qo'ynida o'tkaziladigan ekskursiyaning ahamiyati, o'tkazish metodikasi, mazmuni va turlari.

Tabiat bilan tanishtirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirish. Ekologiya. Ekologiya fanining tarixiy asoslari. Tabiatdagi ekologik bog'lanishlar haqidagi ma'lumotlarni shakllantirish. Tabiat bilan tanishtirish orqali ekologik tarbiyalashda bolalarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini rejalashtirish va tashkil qilish. Turli yosh guruhlarida mashg'ulotlar o'tkazish, ularga rahbarlik qilish. Yangi bilim berish, bilimlarni aniqlashtirish, bilimlarni mustahkamlash mashg'ulotlari. Mashg'ulot o'tkazish tartibi. Tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini rejalashtirish, rejalashtirish turlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni jonli va jonsiz tabiat bilan tanishtirish usullari; "Ilk qadam" maktabgacha davlat o'quv dasturida "Tabiat bilan tanishtirish" bo'limlarida bolalarni tabiat haqidagi bilimlarni o'zlashtirishida o'ziga xosliklar. Tabiat bilan tanishtirishda ilmiylik tamoyili, bolalarning yoshiga mosligi tamoyili, o'lkashunoslik tamoyili, ensiklopedik tamoyillar, faslchilik tamoyillari. Tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan talablar. Kishilarning tabiatdagi mehnati. Turli fasllarda tabiatdagi mavsumiy o'garishlar haqidagi tasavvurlar hosil qilish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish. Tabiat – bolalarni har tomonlama kamol topishoda asosiy omil sifatida. Turli yosh guruhi bolalarining tabiat haqidagi

bilimlarni o'zlashtirishida o'ziga xosliklar. Tabiat bilan tanishtirish orqali bolalarning psixologik xususiyatlarini rivojlantirish. Tabiatshunoslikka oid ta'limiy o'yinlarni rejalashtirish. Tabiat yordamida bolalarning tafakkuri, diqqati, xotirasini rivojlantirish. Tabiat vositasida bolani xar tomonlama barkamol qilib tarbiyalash. Tabiat bilan tanishtirishda aqliy, ahloqiy, jismoniy, estetik, mehnat va iqtisodiy tarbiya turlarini rivojlantirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiatni kuzatish metodikasi. Kuzatish va uning turlari. Turli guruhlarda kuzatishlarni tashkil etish va rahbarlik qilish. Yil fasllariga umumiy tavsifnoma. Tarqatma materiallardan foydalangan holda kuzatishlarni tashkil etish. Texnik vositalar va ulardan foydalanish metodikasi. Kuzatishlarning bolalarga beriladigan bilimlar mazmuniga bog'liqligi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tabiatda oddiy tajribalarni o'tkazishga o'rgatish. Oddiy tajribalar, ularning mazmuni, bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, oddiy tajribalarni o'tkazish metodikasi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat burchagini tashkil qilish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida umumiy tabiat burchagini, har bir guruhda jonli burchakni tashkil etish. Hayvon va o'simliklarni parvarish qilishga o'rgatish. Tabiat burchagiga qo'yiladigan talablar. Mayda sut emizuvchilar va ularni parvarishlash yollarini o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yer maydonchalarida bolalar mehnatini tashkil qilish. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarini o'tkazish va taxlil qilish. Yillik reja. Istiqbolli reja. Kalendar - tematik reja. Mashg'ulot rejasi. Turli guruhlarda mashg'ulotlar o'tkazish, ularga rahbarlik qilish.

MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISH NAZARIYASI VA METODIKASI fani bo'yicha:

Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi predmeti rivojlanishi qonuniyatlarini va maktabgacha ta'lim muassasasidagi maqsadga qaratilgan ta'lim jarayonida bolani talabga to'liq javob beradigan darajada matematik rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik sharoitni o'rganish va amaliyotda qo'llay olish kunikmalarini xosil qilish. Matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasining maqsad va vazifalari. Matematik tasavvurlarini shakllantirish metodikasi nazariyasining tarixi, hozirgi xolati va zamonaviyligi.

To'planning xarakteristik xususiyatlari. Universal to'plam. Munosabatlarning xususiyatlari. Ekvivalentlik munosabati. Tartib munosabatlar. Sharq matematik olimlarining asarlarida arifmetikaning rivojlanishi. Muxammad ibn Muso-al Xorazmiy, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy, Jamshid qiyosiddin al-Koshiy, Ulug'bek asarlarida arifmetikaning rivojlanishi haqida dastlabki ma'lumotlar. Psixologik – pedagogik adabiyotlarda matematik tasavvurlarni rivojlantirish masalalari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishda ta'limning asosiy didaktik tamoillari. Bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirishning umumiy didaktik tamoyilari. Matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish. Maktabgacha ta'lim muassasalarida matematik

tasavvurlarini rivojlantirish ishlarini tashkil etish. MTT turli yosh guruhlarida matematika mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi va tashkil qilish xususiyatlari.

Xayotining uchinchi va to'rtinchi yilida bolalarda miqdoriy tasavvurlarni rivojlantirish. Ko'plik, son, hisob, kattalik, fazo, geometrik shakl va figuralar haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Maktabgacha yoshda assosiy oddiy matematik qonuniyatlari xaqida tushuncha. Ilk yoshdagi bolalarning predmetlar miqdorini idrok qilish, esda olib qolishi va taqqoslashning o'ziga xos xususiyatlari. To'plam haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning sensor asoslari. To'plamlarning tengligi va teng emasligi haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. O'yinlar va o'yin mashqlaridan foydalanish. miqdor haqidagi tasavvurlarni shakllantirish vazifalari «Ko'p» va «Bitta», «Ko'p» va «kam» o'rtasidagi o'zaro munosabat bilan tanishtirish va butunni elementlarga ajratish.

Bolalar ongida natural sonlar qatori tizimining tarkib topishi. Sanash va o'lchash jarayonida bolalarda butun sonlar qatori haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish. Sanash faoliyatining rivojlanish bosqichlari. Sanash natijalari predmetlarining sifat belgilari va ularning fazoviy joylashuvi. Bolalarni butun predmetni teng bo'laklarga bo'lishga o'rgatish.

O'lchash haqida tushuncha. O'lchamning asosiy xususiyatlari. ilk va maktabgacha yoshda bolalarning predmetlarning o'lchamni idrok qilishning o'ziga xosligi. Bolalarda shartli o'lchov yordamida turli o'lchamlarni o'lchash haqidagi tasavvurlarni shakllantirish. Predmetlar o'lchamini idrok qilish va taqqoslash. Bolalarni shartli o'lchov birliklari bilan tanishtirish. Xar bir yosh bolalarni predmetlar shakli bilan tanishtirish metodikasi. Bolalarning predmetlar shakli va geometrik figuralarni idrok qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Shakl haqidagi tasavvurlarni idrok qilish va shakllantirishda so'zning o'rni.

Geometrik figuralarni turli belgilari bo'yicha guruhlash. Geometrik figuralarni burchaklari, tomonlari, soni bo'yicha taqqoslash; ularni o'lchash; umumlashgan tushunchalarni shakllantirish.

Fazo va fazoda mo'ljal olish haqida tushuncha. Bolalarda fazoda mo'ljal olishni rivojlantirish. Idrok qilish va fazoda mo'ljal olishda so'zning o'rni. Xar bir yosh guruhda fazoni idrok etishning o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarning tevarak atrofidagi fazoda mo'ljal olishni o'zlashtirish. Ko'rib idrok qilish va o'lchash asosida fazoni idrok etishi. Vaqt xaqida tushuncha. Vaqt va uning o'ziga xos xususiyatlari. Bolalarda vaqtni xis qilishni rivojlantirish Bolalarni xar bir guruhda vaqtni idrok kilishi. Faoliyatni vaqtda qobiliyatini rivojlantirish. Katta maktab yoshidagi bolalarda vaqtni his qilishni rivojlanishi

Arifmetik misollarni yechish boshlang'ich maktabda matematika fanini o'rganishga tayyorlash. Olti yoshli bolalarga matematikani o'rgatish metodikasi. Bolalarni masalalar yechishga o'rgatish Bolalarni arifmetik amallarni ifodalashga o'rgatish. Bolalarga hisoblash usulini o'rgatish. Arifmetik masalalar yechish. Masalalar ustida ishlashda metodik usullar va izchillik. Soat bilan tanishtirish metodikasi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik rivojlantirish jarayonida mantiqiy fikrlashni loyixalash. Matematik tafakkurni rivojlantirishda modellashtirish asosiy metodlardan biri ekanligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tafakkurini rivojlatirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Bolalarni maktabga tayyorlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni nuqtai nazardan MTT sida bolalarni maktabga tayyorlashga qo'yiladigan talablar. Matematika dasturlari mazmunidagi hamkorlik. Ish uslublaridagi hamkorlik. MTT va maktab ishidagi hamkorlikni tashkil qilish shakllari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida matematik tushunchalarni shakllantirish yuzasidan metodik ishlarning mazmuni. Turli maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tushunchalarini shakllantirishda tuzatish ishlarini olib borish. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida matematika tasavvurlarni shakllantirish metodikasi bo'yicha ishlarni rejalashtirish va qayd qilish.

MTT muassasasi mudirasi va katta tarbiyachining o'rni. Tarbiyachilar bilim darajasini va mahoratini oshirish shakllari. Maktabgacha ta'lim muassasalarida matematik mashgulotlarni o'tkazishda kasbiy tayyorgarligi. Bollarning mustaqil matematik faoliyatiga rahbarlik qilish.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr'. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2016. – 48 b.

3. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

4. Акбарова Р.Т. Мактабгача ёшдаги болаларни ўсимликлар билан таништирувчи дидактик ўйинлар. - T.: ТДПУ, 2005 й.

5. Аксенова, З.Ф. Войди в природу другом. Экологическое воспитание дошкольников. – Москва: ТС Сфера, 2011. – 128 с.

6. Babayeva D.R. - “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” - T.: Barkamol fayz mediya 2018 yil – Darslik.

7. Babayeva D.R. –”Tevarak-atrofni o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish”-T.:TDPU 2019 yil. Monografiya

8. Babayeva D.R. - “Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi” - T.: “Intellectual mulk agentligi” 2020 yil (elketron darslik).

9. Bikbaeva N.U., Ibrogimova Z., Qosimova H. Maktabgacha yoshidagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. T.: O'qituvchi, 1995. – 184 b.

10. Бикбаева Н.У., Алиева У.С. Математика/ Методическое пособие для подготовительных групп детских садов. – T.: Офсет-Принт, 1999. – 28 с.

11. Джамилова Н.Н., Терехова О.Н, Ким.И.Н Теория и методика физического воспитания. Т. Низомий номидаги ТДПУ, 2020 – 232 с.

12. Джанпеисова Г.Э. Современные аспекты математического образования дошкольников. / Методическое пособие. T.: Низомий номидаги ТДПУ, 2017 – 104 с.

13. Djanpeisova G.E. Modern aspects of mathematics education of preschool children. / Methodical aid. T.: TSPU named after Nizami, 2017. – 106 p.
14. Djuraeva D.R.- Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. Услужбий қўлланма - T.: 2015
15. Jumaev M. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. KHK uchun o'quv qo'llanma. T.: Ilmi-Ziyo, 2017.
16. Jumaev M. Matematika o'qitish metodikasi. / OTMLar uchun dasrlik. T.: Sharq, 2016.
17. Jumaev M. Bolalarda boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. / Pedagogik yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qullanma. T.: Ilm-Ziyo, 2013.
18. Kayumova N.M.- Maktabgacha pedagogika. O'quv Qo'llanma- T.: 320 b.
19. Maxmudova O.A., Maxmudova S.A. "Maktabgacha ta'lim tizimida plastik materiallar bilan ishlash texnologiyalari".O'quv qo'llanma."NISO POLIGRAF".Toshkent, 2019-120b.
20. Maxmudova O.A."Maktabgacha yoshdagi bolalarni rasm chizishga o'rgatish metodikasi".O'quv qo'llanma."NISO POLIGRAF" Toshkent, 2019y.-152 b.
21. Sodiqova Sh.A - Maktabgacha pedagogika. Darslik - T.: Tafakkur bo'stoni.- 470 b.
22. Содиқова Ш.А., Расулхўжаева М.А. Болаларни табиат билан таништириш методикаси. Ўқув қўлланма – Т.: “Фан ва технология” 2013
23. Qodirova F.R.- Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi ruhiy omillari - T.: “ISTIQLOL”, 2006y. - O'quv qo'llanma.
24. Rasulxo'jaeva M.A.Bolalarni hayvonot olami bilan tanishtirish orqali axloqiy sifatlarini shakllantirish texnologiyasi.Uslubiy qo'llanma - T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat” 2020.
25. G.Tulenova. X,Xo'jayev.P, Xo'jayeva. “Jismoniy tarnazariyasi va metodikasi”.T.: Ilm ziyo. 2012
26. Xasanboyeva O.U. va boshq - Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. - O'quv qo'llanma - T.: Ilm ziyo. 2012
27. Xasanboeva O. va boshq - Oila pedagogikasi. O'quv qo'llanma - T.: “Aloqachi”, 2007 y.
28. Xasanova Sh.- Tasviriy faoliyatga o'rgatish nazariyasi va metodikasi - T.: TDPU, 2020 y. - O'quv qo'llanma
29. Childraft-The flow and Why Library. Mathemagie. (Reg. U.S. Pat and T.M. Off Marca Registrada). Chicago, World Book Inc., 2008. – 288 p.
30. Kumon Publishing. Geometry & Measurement Grade 1 PDF Math Workbook, Kumon Publishing, 2008 USA, – 80 p.
31. NATURAL CURIOSITY: Building Children's Understanding of the World through Yenvironmental Inquiry / A Resource for Teachers. Printed in Canada by Maracle Press Ltd., Copyright © 2011.- 180 p.
32. Suzanne Lowell Krogh. Yeducating young children. Infancy to Grade Three Western Washington University. – 2004. By McGraw – Hill, Inc, – 561 p.